



THE US POLICY OF SOFT POWER IN CENTRAL ASIA

Malikabonu Talibova

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: malikabonutolibova@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: soft power, hard power, digital diplomacy, «Greater Central Asia», American corner, USAID.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article discusses the growing influence of the United States in the Central Asian region and the role, opportunities and methods of soft power policy in this process.

AQSH YUMSHOQ KUCH SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO VEKTORI

Malikabonu Tolibova

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: malikabonutolibova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yumshoq kuch, qattiq kuch, raqamli diplomatiya, «Katta Markaziy Osiyo», Amerika burchagi, USAID.

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQShning Markaziy osiyo mintaqasidagi tobora o'sib borayotgan ta'siri va bu jarayonda yumshoq kuch siyosatining roli, imkoniyatlari va usullari muhokama qilinadi.

ПОЛИТИКА МЯГКОЙ СИЛЫ США В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Маликабону Талибова

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: malikabonutolibova@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мягкая сила, жёсткая сила, цифровая дипломатия,

Аннотация: В данной статье рассматривается растущее влияние США в

"Большая Центральная Азия", Центральноазиатском регионе, а также "Американский уголок", АМР США. роль, возможности и методы политики мягкой силы в этом процессе.

KIRISH

So'nggi yillarda "yumshoq kuch" atamasining qo'llanishi ommalashib bormoqda. Bu atama Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan fanga olib kirilgan bo'lib, qattiq kuchdan farqli o'laroq, maqsadga tahdid va majburlashlarsiz, rag'batlantirish va jalb qilish orqali erishish usuliga nisbatan qo'llanadi. Davlatlarning yumshoq kuchi esa J. Nayning "Yumshoq kuch" kitobida ta'kidlanganidek, "uchta manbaaga tayanadi: uning boshqalar uchun jozibador madaniyati, mamlakat ichida va tashqarisida namuna bo'la oladigan siyosiy qadriyatlari hamda huquqiy va axloqiy kuch sifatida namoyon bo'lgan tashqi siyosati"(J.Nay, 2004, b-38). Ya'ni, yumshoq kuch – o'zining qadriyatlariga ishonitirish va jalb qilish orqali munosabatlarni o'rnatish va ta'sir ko'rsatish siyosatidir. Yumshoq kuchning qattiq kuchdan farqi, qattiq kuchda harbiy aralashuv, qo'rqitish va iqtisodiy bosimlar asosiy qurol hisoblanadi. Yumshoq kuchning asosiy qurollarini : axborot vositalari, davlat tilining global o'rni, ta'lim tizimi, talabalar almashinuv dasturlari, sport va madaniy loyihalar, ommaviy diplomatiya, turizm siyosati kabilar tashkil etadi. Agar yumshoq kuchdan to'g'ri foydalanilsa, mamlakat nafaqat boshqa davlatda balki dunyoda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga ta'sir qila oladi.

ASOSIY QISM

Ommaviy diplomatiya yumshoq kuchning asosiy usullaridan hisoblanib, bu atama 1965-yil sobiq amerikalik diplomat Edmund Gallion tomonidan boshqa davlatlardagi ommani xabardor qilish va jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish uchun hokimiyat tomonidan moliyalashtiriladigan dasturlarni ko'zda tutgan holda qo'llanilgan. J.Nayning fikricha, ommaviy diplomatiya axborotni yetkazish va ijobiy taasurot yaratish, hamda mamlakat tashqi siyosati uchun manfaatli bo'la oladigan munosabatlarni o'rnatish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi va AQSh yumshoq kuchining muhim omillaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, hozirgi zamonaviy dunyoda ommalashib borayotgan internet «raqamli diplomatiya»ning rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. «Raqqamli diplomatiya» ommaviy diplomatiyaning bir qismi bo'lib, hukumatning internet, axborot-kommunikatsiya, ijtimoiy media va onlayn platformalardan foydalanib, tashqi siyosatdagi maqsadlarga erishish strategiyalarini ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda yumshoq kuch siyosati bo'yicha yetakchi davlat hisoblangan Amerika Qo'shma Shtatlari bu siyosatdan Markaziy Osiyodagi manfaatlarini himoya qilish yo'lida faol foydalanadi.Ma'lumki, Markaziy osiyo mintaqasi Rossiya va Xitoy manfaatlarini kesishgan hudud hisoblanadi va AQSh hamda Yevropa davlatlarining bu mintaqaga qiziqishi ortib bormoqda. Geografik jihatdan uzoqda joylashgani sabab, AQShning imkoniyatlari

kamdek ko'rinsa-da, o'zining yumshoq kuch siyosati sabab bu mintaqadagi ta'sirining kuchayib borishiga erishmoqda. Ammo, mintaqada AQSh yumshoq kuchi yo'lida to'sqinlik qiladigan omillar ham yo'q emas.

Yumshoq kuch siyosati bo'yicha izlanishlar olib borgan mamlakatimiz siyosatshunos olimlari orasidan Farxod Tolipov, Nodir Jo'rayev, Baxtiyor Ergashev, Shuxrat Bobojonov kabilarni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Ayniqsa, Dr. Farxod Tolipov yumshoq kuchning xalqaro munosabatlar va diplomatiyadagi muhim roli, O'zbekistonning madaniy, tarixiy va diplomatik resurslari orqali yumshoq kuch siyosatini yanada rivojlantirish va xalqaro maydonda o'z manfaatlarini himoya qilishi haqidagi munozaralarini bayon etib, bir nechta ilmiy ishlar muallifiga aylangan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqaviy aktorlar va tashqi kuchlar tomonidan yumshoq kuch siyosatining qo'llanilishi, uning mintaq siyosati va xalqaro munosabatlardagi roli haqida tadqiqotlar olib borgan Nargis Kassenova, Emil Nasritdinov va Alisher Ilhamov kabi mutaxasislarni ta'kidlab o'tish lozim.

Yumshoq kuch va ommaviy diplomatiyani o'rganish borasidagi tadqiqotlarning aksar qismi yevropalik va amerikalik olimlar tomonidan olib borilgan. Jan Melissen, Korneliu Bjola, Edverd Schatz va Erika Marat, Ben O'laflin hamda amerikalik mutaxasislar Jozef Nay, Syuzan Vengle, Marlen Laruel, Monika Toft, Robert Kagan, Farid Zakariya hamda Enn-Mariya Slotter kabi siyosatshunoslarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada SWOT tahlil usulidan foydalanildi.

Kuchli tomonlari: Sovet Ittifoqi parchalanib ketgandan so'ng, Markaziy Osiyoda mustaqilligini e'lon qilgan davlatlarning suverenitetini tan olgan ilk mamlakatlardan biri AQSh hisoblanadi. Vashingtonning mintaqaga bo'lgan qiziqishining ortib borishiga geosiyosiy joylashuvi, demokratik institutlarni rivojlantirish va Rossiya va Xitoyning mintaqadagi faolligi asosiy omillardan hisoblanadi. Ba'zi mutaxasislarning fikricha, Amerikaning mintaqadagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorligiga 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin keskin o'zgarishlar kuzatilgan. Ya'ni, AQShning milliy manfaatlariga tahdid soladigan xavfsizlik muammosi yuzaga keldi va Vashington endi Markaziy Osiyoda inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodni rivojlantirish, xalqaro integratsion jarayonlarni faollashtirish kabi masalalar bilan birgalikda, xavfsizlik muammosini ham e'tiborga ola boshladi.

Vashington mintaqada o'z harbiy bazalariga ega bo'ldi va Afg'onistondagi vaziyat tufayli Markaziy Osiyo AQSh uchun muhim rol o'ynay boshladi. 2005-yilda ishlab chiqilgan «Katta Markaziy Osiyo» loyihasi esa buning isbotidir. Loyiha Markaziy Osiyoda mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlovchi umumiy muammolarni hal qilishda yordam berish maqsadida AQSh va Yevropa Ittifoqi tomonidan bildirilgan mintaqaviy yondashuvni ilgari surish g'oyasini aks

ettiradi. «Markaziy Osiyoda Amerika siyosati 2.0» konsepsiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar muvafaqqiyatli yakunlangan bo'lsa-da, Jorj Bush davrida Qo'shma Shtatlarning demokratiya va matbuot erkinligi g'oyalarini kuch bilan yetkazib berishga uringan «tajovuzkor liberalizm» siyosati tufayli mintaqadagi do'stona hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, Amerikaning bu hududga nisbatan olib borayotgan ommaviy diplomatiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Bunga misol qilib, hukumat tomonidan taklif etiladigan almashinuv dasturlari, stipendiyalar, madaniy va sport tadbirlari, axborot dasturlarini ko'rsak bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari Amerika mahsulotlari bilan to'ldirildi hamda mintaqaning eng chekka hududlarida ham o'zining madaniyat markazlariga ega bo'ldi. Kam e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu «American corner» markazlarini AQSh hayoti, madaniyati va ta'lim imkoniyatlari haqida ma'lumot ulashuvchi markazlar hisoblanib, yoshlarni Amerikancha hayot bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan ommaviy diplomatiya quroli sifatida ko'rishimiz mumkin. «Mahalliy aholida AQSh dasturlari asosidagi maqsadlar va ularni ilhomlantiradigan asosiy Amerika qadriyatlari haqida tushuncha hosil qilish lozim. Shu maqsadda ommaviy diplomatiya, ta'lim va ommaviy axborot vositalari sohasida ishlar olib borish zarur. Ommaviy diplomatiya Amerika madaniyat markazlarini («Amerika burchagi» nomi ostida) yoyish orqali boshlanishi kerak. (F.Starr, 2005, p. 175)

AQShning mintaqada olib borayotgan siyosatini ijobiy talqinda ko'rsatish uchun ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bu borada USAID (AQShning Xalqaro Taraqqiyot agentligi) mintaqada bir nechta faol loyihalar olib bormoqda. Agentlik mintaqada 1990-yildan beri faoliyat olib bormoqda va 2018-yil may oyida ommaviy axborot kommunikatsiyalari sohasi rivoji uchun 15 mln dollar ajratgan. Bundan ko'zlangan maqsadlar aholiga yetkazilayotgan ijtimoiy masalalarga doir xabarlarini yetkazishda ochiqlik va xolislikni ta'minlash, axborotni qabul qilishda yoshlarda tanqidiy qarashni shakllantirish, ommaviy axborot sohasida huquqiy asoslarni mustahkamlashni tashkil etadi. Bundan tashqari, USAID Internews bilan hamkorlikda 2018-2023 yillarga mo'ljallangan 15 million dollarlik loyihani amalga oshirdi. Mazkur loyiha doirasida jurnalistlar malakasini oshirish bilan birgalikda yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutilgan. Markaziy Osiyoda ommaviy axborot yanada rivojlantirish yo'lida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlaridan biri Internews Network bo'lib, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda o'z filiallariga ega. Ushbu tashkilot blogger va jurnalistlarni tayyorlash, internet jurnalistikasini qo'llab quvvatlashni maqsad qilgan. Amerika web 2.0 imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanmoqda, chunki bu ma'lumot yetkazish va ijobiy imidj yaratishning eng ommalashgan va qulay usulidir. Masalan, Amerika elchixonalari va madaniyat

markazlarining barchasi mintaqada mavjud ijtimoiy tarmoq sahifalarida taqdim etilgan hamda kunlik axborotni taqdim etish, ijtimoiy hodisalarga nisbatan o'z fikrini bayon etish, AQSh hayoti va taqdim etilayotgan imkoniyatlar bilan bo'lishish orqali faollik ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, Ozodlik Radiosi barcha tillarda, «Amerika ovozi» esa o'zbek va fors tillarida faoliyat olib boradi.

Avvalroq qayd etilganidek, ta'lim tizimi va tilning global mavqeyi yumshoq kuchning asosiy qurollaridir. AQSh Markaziy Osiyo talabalariga ta'limni Amerika universitetlarida davom ettirishga ko'mak beradi va ingliz tilini o'rganish uchun ilhomlantiradi. Bunga misol, qilib, Fullbright, UGRAD, Flex va boshqa qisman yoki to'liq hukumat tomonidan qoplanadigan grant turlarini aytib o'tish lozim. Ayniqsa, almashinuv dasturlar orqali inson huquqi, demokratiya va ijtimoiy adolatni rivojlantirishga hissa qo'shish alohida e'tibor ostiga olinadi. Rasmiy xabarlarga ko'ra AQShda tahsil olgan qirg'izistonlik talabalarning 2022-23 o'quv yilida soni 1245 taga yetib, oldingi o'quv yiliga nisbatan 76% o'sish kuzatilgan. Shuningdek, «Open Doors Report» xabar qilishicha AQSh universitetlaridagi o'zbekistonlik talabalarning soni ushbu 2022-2023 yillarda 1000 nafardan oshgan hamda o'tgan o'quv yiliga nisbatan 72,6% o'sish qayd etilgan. Hamda Qirg'izistonda 1993-yilda ochilgan Markaziy Osiyo Amerika Universiteti bunga yaqqol misoldir. Universitetning vazifasi «Markaziy Osiyoda demokratik o'zgarishlar uchun» deya ifodalangan va universitet vakillari tomonidan bu o'zgarishlarning bo'lajak yetakchilari tarbiyalanishi ochiq e'tirof etilgan.

Zaif jihatlar: AQShning mintaqadagi kuchayib borayotgan ta'siriga qaramasdan, yumshoq kuch siyosati ham kamchiliklardan holi emas. Masalan, Vashingtonning Markaziy Osiyoga bo'lgan e'tibori boshqa mintaqalardagi qiziqishlari sabab chetda qolib ketishi kuzatiladi. 2005-yilda tuzilgan «Katta Markaziy Osiyo» loyihasi ham AQShning 2008-yilda Janubiy Osetiyadagi vaziyat Gruziyaga e'tiborni tortdi va Rossiya bilan munosabatlari sabab, chetga surib qo'yildi.

Bundan tashqari, AQShning Markaziy Osiyo davlatlarida inson huquqlari va demokratiyani rivojlantirish g'oyalarini ilgari surishdagi harakatlari davlat ichki ishlariga aralashuv sifatida ko'rilishi mumkin. Misol uchun, Qirg'izistondagi 2005 yilgi davlat to'ntarishi mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlash texnologiyalarini sinab ko'rishga intilayotgan amerikaliklarning xohish-istaklari bilan bevosita bog'liq bo'lganini ta'kidlash o'rinlidir.

Shuningdek, mintaq davlatlari va aholisi tomonidan Vashington siyosatiga bo'lgan salbiy qarashlar ham mavjud. Masalan, AQShning Afg'onistondagi vaziyat sabab Markaziy Osiyo davlatlari bilan tuzgan harbiy va xavfsizlik bo'yicha hamkorliklari, ba'zi davlatlar tomonidan suverenitetga tahdid sifatida ko'rilishi mumkin. Shuningdek, AQShning ommaviy axborot

vositalari, ta'lim va madaniyat dasturlari orqali olib borayotgan yumshoq kuch siyosati, amerikacha madaniyatni singdirish sifatida tanqid ostiga olinadi. Tarixan Gollivud va Amerika musiqa sanoati har doim Amerika yumshoq kuchiga hissa qo'shgan. Shu bilan birga, Amerika (ommaviy) madaniyati borasida mintaqada aholisining aksar qismi salbiy fikrga ega.

Imkoniyatlar: AQSh Markaziy Osiyo davlatlari bilan mustahkam diplomatik aloqalarni rivojlantirmoqda. Bunga misol qilib, har yili o'tkaziladigan C5+1 forumini ta'kidlash joiz. 2015-yildan beri davom etib kelayotgan mazkur diplomatik forum davlatlar orasida Afg'oniston va Liviyadagi mavjud vaziyat, terrorizm xavfi, iqtisodiy va ekologik muammolar muhokama qilinadi. Jumladan, 2023-yil 24-oktabrda AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi tomonidan mezbonlik qilingan C5+1 forumi doirasida ikki tomonlama savdoni mustahkamlash, eksport-import bozori, yashil energiyani rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish hamda ayollar, bolalar va nogironlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha olib boriladigan hamkorlik ishlari muhokama qilindi.

Yuqorida ta'kidlangan, ta'lim va madaniy dasturlar statistika ma'lumotlari esa yildan yilga yumshoq kuch samaradorligini oshirib borayotganini anglatadi.

Tahdidlar: AQSh mintaqada avvaldan ta'sir kuchiga ega bo'lgan Rossiya va qiziqishlari ortib borayotgan Xitoy bilan raqobat olib boradi. Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan madaniy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy hamkorligi hamda davlatlarning iqtisodi o'ziga qo'shni bo'lgan bu ikki qudratli kuchga salmoqli ravishda bog'liq bo'lgani sabab AQSh yumshoq kuch siyosati yo'lida to'siq bo'lmoqda.

Shuningdek, AQSh ommaviy va raqamli diplomatiyasi yo'lida qilinayotgan harakatlar mintaqada davlatlari hukumatlari o'rtasida shubha ostiga olinadi. Ya'ni ma'lumki, axborot olamida hukmronlikka ega bo'lish, mamlakatga o'sha mintaqadagi ommaning fikrini boshqarish ustunligini beradi. Bundan tashqari, kino sanoatining Gollivud mahsulotlari bilan to'ldirilishi mintaqada aholisining milliy mentalitetiga mos kelmasligi ham jiddiy tanqid ostida olinmoqda.

XULOSA

Vashington yumshoq kuch siyosati Markaziy Osiyo hududida hozirgi kunga qadar mamlakat haqida ijobiy imidj yaratish, ommaviy diplomatiyani rivojlantirish, yoshlarni jalb etish va tashqi siyosat salohiyatiga ishonitirish kabi vazifalarni amalga oshirdi.

AQShning kuchli madaniy ta'siri, iqtisodiy yordam dasturlari va ta'lim almashinuvlari mintaqada yumshoq kuch ta'sirini oshirsa-da, global kuchlar bilan raqobat, mahalliy aholida mavjud salbiy qarashlar, siyosiy beqarorlik hamda Rossiya va Xitoyga iqtisodiy bog'liqlik bu tashabbuslar samaradorligiga jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaradi. Kelajakda, mahalliy aholi bilan aloqalarni mustahkamlash, hukumatlararo hamkorlikni rivojlantirish va Markaziy Osiyo

davlatlari madaniyatiga uyg'un holda qadriyatlarni ilgari surish mavjud to'siqlarni bartaraf etishi mumkin. O'zining ustunliklarini yanada mustahkamlab, zaif jihatlarini kamaytirish orqali AQSh o'z yumshoq kuch siyosatini yuksaltirishi hamda ushbu strategik muhim mintaqada o'z ta'sirini saqlab qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nay, J. (2023). Yumshoq kuch. Toshkent.»Trust and support».
2. Aleksandrov, D., Ippolitov, I., Popov, D., (2014)“Soft Power” as an Instrument of U.S. Policy in Central Asia. Cyberleninka. Retrieved from <http://www.cyberleninka.ru>
3. Rockower, P. (2015, April 15) This American Corner. USC Center on Public diplomacy. Retrieved from <https://uscpublicdiplomacy.org>
4. Starr, S.F. (July/Aug. 2005) A Partnership for Central Asia. Foreign Affairs Vol. 84. P. 164-178.
5. Izzatullayev, B. RAQAMLI DIPLOMATIYA AQSHNING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH ASOSIY VOSITASI SIFATI. (2023) Scientific Journal Impact Factor. Vol. 2. P. 152-159.
6. United States Foreign Policy in the States of Central Asia. (2002, November 12). Brookings. Retrieved from <https://www.brookings.edu>
7. United States strategy for Central Asia 2019-2025. U.S. Embassy in Uzbekistan. Retrieved from <https://uz.usembassy.gov>
8. Record Number of Students from Uzbekistan Studying in the United States. (November 15, 2023) U.S. Mission Uzbekistan. Retrieved from <https://uz.usembassy.gov>
9. Public and digital diplomacy. Retrieved from <https://www.exteriores.gob.es>